

ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР: ФИЛОЛОГИЯ ВА ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ



ИЮЛЬ
2020
ТОШКЕНТ
ЎЗБЕКИСТОН

МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ

ХАЛҚАРО
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
МАСОФАВИЙ
КОНФЕРЕНЦИЯ

**"ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ
ТИЗИМЛАРНИ ҚЎЛЛАШ: ФИЛОЛОГИЯ ВА
ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ
ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ
ОМИЛЛАРИ"**

**"ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В
СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ:
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ФАКТОРЫ
РАЗВИТИЯ В ФИЛОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКЕ"**

**"DIGITAL TECHNOLOGIES IN MODERN
EDUCATION: CURRENT TRENDS AND
DEVELOPMENT FACTORS IN PHILOLOGY AND
PEDAGOGY"**

Замонавий таълимда рақамли тизимларни қўллаш: Филология ва педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омиллари [Тошкент; 2020] 1 июль 2020 йил. -Тошкент: Tadqiqot, 2020. -2326

Ушбу тўплам замонавий таълимда рақамли тизимларни қўллаш: Филология ва педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омилларига бағишланган тезисларни қамраб олган.

УЎК 37.018.43:004(062)

DOI 10.26739/conf_08/07/2020

Ушбу тўпламнинг электрон шакли бизнинг сайтимизда
<https://tadqiqot.uz/conf/>

Таҳририят кенгаши

- 1.Абдуллаева Барно Сайфутдиновна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети проректори, п.ф.д., профессор
- 2.Шахобиддин Саидович Ашуров Самарқанд давлат чет тиллари институти проректори, ф.ф.н., доцент
- 3.Джурев Рисбой Хайдарович Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети академиги, п.ф.д.
- 4.Асқаров Ахмадали Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети академиги, т.ф.д.
- 5.Ли Ю Ми (Жанубий Корея) Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети PhD
- 6.Лутфуллаев Махмуд Ҳасанович Самарқанд давлат чет тиллари институти профессори, п.ф.д.
- 7.Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
- 8.Насруллаева Нафиса Зафаровна Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
- 9.Кисилев Дмитрий Анатолевич Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
- 10.Сувонова Нигорабону Низамиддиновна Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.н.
- 11.Ғайбуллаев Отабек Муҳаммадиевич Самарқанд давлат чет тиллари институти профессори, ф.ф.д.
- 12.Муслимов Нарзулла Алиханович. Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
- 13.Халиков Аъзам Абдусаломович педагогика Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
- 14.Уразова Марина Батировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
- 15.Мирсолиева Муҳаббат Тухтасиновна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.д.
- 16.Мамадалиев Абдумажид Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
- 17.Садиқова Альбина Венеровна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
- 18.Авазов Шериммат Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.н.
- 19.Мамаражабова Зулфия Нарбасвна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.н.
- 20.Адилова Саодат Хусановна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
- 21.Расулов Анвар Баходирович Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети бўлим бошлиғи, PhD
- 22.Абдуазимов Азиз Абдусобирович Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети бўлим бошлиғи,
- 23.Раҳимова Гулсанам Аширбековна Ўзбекистон Миллий Университети Хорижий Филология факультети Табиий йуналишлар бўйича чет тиллар кафедраси мудири

Тўпламга киритилган тезислардаги таълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир

©Муаллифлар жамоаси

©Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций журналлов: www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амир Темура пр.1, дом-2.
web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел:(+998-94) 404-00-00

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email:info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-00-00

| | |
|--|-----|
| READING..... | 161 |
| 58.Xonkeldiyeva O'g'loy Xoshimjanovna YOSHLARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH..... | 163 |
| 59.Ro'zimurotova Nazira To'xtayevna, Halimova Marhabo Akramovna ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA CHET TILLARIDAN UNUMLI FOYDALANISHNI SHAKLLANTIRISH..... | 165 |
| 60.Raxmatullayeva Dilshoda Boltaboyevna YOZGI TA'TIL DAVRIDA TASVIRIY SAN'AT TO'GARAKLARINI ONLAYN OLIV BORISH..... | 167 |
| 61.A.Абдиразакова ОСОБЕННОСТИ АМЕРИКАНСКОЙ ФАНТАСТИКИ ПЕРИОДА СТАНОВЛЕНИЯ РОМАНТИЗМА..... | 169 |
| 62.Холмурадова Лейла Актуальность изучения роли языка в построении языковой картины мира..... | 171 |
| 63.Аткамова С.А. ЭКСПРЕССИВНОСТЬ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В МЕДИАТЕКСТЕ..... | 174 |
| 64.Аткамова С.А. ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОВРЕМЕННОЙ ГАЗЕТЫ..... | 178 |
| 65.Аширов Баҳодир,Суюнова Гулчехра ОНА ТИЛИ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ТАЪЛИМИЙ ЎЙИНЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ..... | 180 |
| 66.Дадажанова Мухаё Каимжоновна Дифференцированное обучение на уроках русского языка и литература в средней школе..... | 182 |
| 67. Нарходжаева Дариха Рахматуллаевна "Внеклассная работа по русскому языку в начальных классах национальной школы "..... | 185 |
| 68.Ҳасанова Зарифа Раҳмоналиевна ОНА ТИЛИ - ОЛИЙ ҚАДРИЯТ ВА МАЪНАВИЯТ КАЛИТИ..... | 189 |
| 69.Имамова Зулайхо тўхтаўжаевна СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ..... | 193 |
| 70.Исмаилова Саодат Рихсибаевна, Бедилова Азиза Мэлсовна Культура речи и языковая компетенция..... | 196 |
| 71.Комилова Нафиса Амоновна Планирование профессионального развития преподавателей в неопределенном будущем..... | 199 |
| 72.To'rayeva Gulbahor Halimovna. Mamaraimova Zahro MASHINA TARJIMASINING O'ZBEK TILIDAGI MUAMMOLARI..... | 202 |
| 73.Қундузова Муножот Эргашевна Сила коротких письменных заданий..... | 205 |
| 74.Niyazova Gulnoza Abdullayevna I.A. BUNIN IJODIDAGI "SHARQ" TUSHUNCHASI..... | 208 |
| 75.Насиба Джуманиёзова, Мастура Матчанова Зебо Мирзо шеъриятида ишқ оҳанглари..... | 210 |
| 76.Мелькумова Снежана Викторовна Методы построения навыков чтения..... | 213 |
| 77.Турдикулова Барно Тоиркуловна | |



MASHINA TARJIMASINING O'ZBEK TILIDAGI MUAMMOLARI

To'rayeva Gulbahor Halimovna

BuxDU, Axborot texnologiyalari kafedrasini o'qituvchisi
gulbahor.th@gmail.com

Mamaraimova Zahro
BuxDU, Xorijiy filologiya fakulteti
1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Tezisdagi mashina tarjimasining xato va kamchiliklari, Google translate tizimiga o'zbek tilining qo'shilishi, tizimning o'zbek tiliga tarjimasidagi muammolar, xatoliklar misollar keltirib izohlab o'tilgan. Shuningdek, maqolada o'zbek tilidagi web-kontentlarning sifati, dasturlarda orfografik xatoliklarni tekshiruvchi funksiyalarning mavjud emasligi xususida ham so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Mashina tarjimasi, Google Translate, avtomatik tarjima kamchiliklari, o'zbek tiliga tarjima, rus tiliga tarjima, "bat", "ko'rshapalak", "belkurak", "to'qmoq", "kichik ziyofat", onlayn tarjima, Wikipedia, web-kontent, web-sayt.

Ma'lumotlarning geometrik progressiya asosida keskin ko'payishi ularning boshqa tillarga tezkor tarjima qilinishini ta'minlovchi tizimlarga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqardi. Bunga javoban mashina tarjimasi yoki avtomatik tarjima yo'nalishida amaliy tadqiqotlar yaratila boshlandi. Eng ahamiyatli tomoni shundaki, mashina tarjimasiga oid izlanishlar kompyuter lingvistikasi fanining yuzaga kelishida tayanch nuqta hisoblanadi.

1954-yilda AQShdagi Jorjtaun universitetida dunyoda birinchi marta avtomatik tarjima tajribadan o'tkazildi. U GAT tizimi (inglizcha "Georgetown Automatic Translation" birikmasining qisqartmasi) deb ataladi. Bu tajribalar IBM701 kompyuterida o'tkazildi. Bu tajribaning bazasi algoritmlardan iborat bo'lib, 50 000 ta so'z (60 ta gap)ni rus tilidan ingliz tiliga tarjima qildi.

Internet tizimining rivojlanishi natijasida avtomatik tarjima global tarmoqda ham tashkil etildi, ya'ni hozirgi kunda online-tarjima tizimi ham faol yo'lga qo'yilgan.

Katta ma'lumotlarga asoslangan sun'iy neyron tarmoqlari tarjimaning sifatini yil sayin yaxshilab ormoqda. Lekin shunga qaramay, avtomatik tarjimadagi kamchiliklar hali talaygina. Bugungi kunga kelib, ommaviy ravishda qo'llanilib kelinayotgan mana shunday avtomatik tarjima tizimlaridan biri bu Google Translate xizmatidir.

Vikipediya ma'lumotlarigako'ra, hozirda bu tizim 90 tatilni qo'llab-quvvatlaydi. 2014 yilning dekabr oyida Google Tarjimonga o'zbek tili ham qo'shildi. Buni amalga oshirishda o'zbek tilini bilgan ko'ngillilar yordamidan hamda Shavkat Bo'tayevning o'zbekcha lug'atidan foydalanildi. Bu albatta quvonarli holat, lekin mashina tarjimasining o'zbek tilidagi tarjimalarida qator kamchiliklarni kuzatish mumkin.

Google Tarjimon boshqa avtomatik tarjima asboblari singari o'z cheklovlariga ega. Ushbu asbob foydalanuvchiga chet tilidagi matn tarkibining umumiy mazmunini tushunishga yordam beradi. Ammo u ko'p hollarda aniq tarjimalarni taqdim etmaydi. Shuning uchun doimiy ravishda tarjima sifati bo'yicha ishlar olib boriladi, boshqa tillarga tarjimalar yaratiladi.

Avtomatik tarjimaning kamchiliklari:


1. So'zlar avtomatik tarjima jarayonida to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinadi. Shuning uchun tarjima grammatik qoidalarga deyarli rioya qilinmagan holda amalga oshiriladi.

2. Avtomatik tarjima qilingan matnni uslub jihatdan tahrirlab chiqish zarur bo'ladi.


3. Hozirgi mavjud avtomatik tarjima qiluvchi sistemalar so'zlar birikuvini ham deyarli noto'g'ri tarjima qiladi.



Masalan, ingliz tilidagi "The bat looks like a mouse with wings" gapini o'zbek tiliga tarjima qilishda "Yarasa qanotli sichqonchaga o'xshaydi" tarzida tarjima qiladi. Men tilshunos emasman, lekin jumladagi tarjima g'alisligini anglash chuqur bilim talab qiladi, deb o'ylamayman:



Shu gapning rus tilidagi tarjimasida esa, "Летучая мышь выглядит как мышь с крыльями" ko'rinishda bo'ladi.



Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, tarjimalarning rus tilidagi varianti ancha tiniq va toza, o'zbek tilidagi tarjimalar esa, g'alis bo'lib, faqat ma'no jihatdan anglab olish mumkin bo'ladi.

Jumlalarni tarjima qilishda uning omonimlik xususiyatlarini e'tiborga olish zarur. Aks holda tarjima muvaffaqiyatli chiqmaydi. Jumladagi "bat" so'zi "ko'rshapalak", "belkurak", "to'qmoq", "kichik ziyofat" kabi ma'nolarni, "look" so'zi esa "qaramoq", "nigoh", "ko'rinish" ma'nolarini anglatadi.

Yana bir misol, "Have you ever wanted to make some extra money?" gapini quyidagicha tarjima qilinadi: "Hech qachon qo'shimcha pul ishlashni xohladingizmi?". Rus tilida esa, "Вы когда-нибудь хотели заработать немного денег?". Bunda ham gapni ma'no jihatdan anglab olibgina tushunish mumkin. Lekin gapda bir ma'noli so'zlar ishlatilgani uchun tarjima biroz asliga yaqin bo'lgan.

Shularni nazarda tutgan holda aytish mumkinki, avtomatik tarjima, ayniqsa, rasmiy til doirasida muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. So'zlashuv va badiiy uslubdagi matnlarning avtomatik tarjimasida hali hanuz maksimal darajada hal etilgani yo'q.

Albatta, eng sifatli tarjima insonning aralashuvi bilan yuzaga keladi. Chunki tarjimon inson tilining nozik qirralarini, semantik, grammatik va pragmatik jihatlarini nazarda tutgan holda tarjimaga yondashadi.

Shunga qaramay, kundan-kunga web-kontentlar, axborot tizimlarining miqdor jihatdan keskin oshib borishi, shu bilan birga global tarmoqdagi aksariyat ma'lumotlarning rus yoki ingliz tilida ekanligi o'zbek tilli aholi uchun zarur ma'lumotlarni to'g'ri qabul qilishni cheklaydi. Dunyoda 30 mln.ga yaqin aholi shu tilda so'zlashishiga qaramay, haligacha o'zbek tilining jahon hamjamiyatidagi o'rni sezilarli darajada emas. O'zbek tilidagi mavjud web-saytlarning sifatini ham qoniqarli deyish qiyin. Xorijiy saytlardan olinib, to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilingan ommaviy maqolalardagi jumlarlar bir-biriga bog'lanmagan va so'zlarda



ko'pgina orfografik xatoliklarni uchratish mumkin:

Hozirgi kunda internet, juda katta tezlikda rivojlanib ketmoqda. Shu bilan birga internetga oid har xil terminlar ko'paymoqda. Misol uchun, sayt, portal, veb sahifa, veb server,...Bu terminlarni o'rganish, hozirgi zamon uchun muhim hisoblanmoqda. Biror inson bilan internet haqida gaplashsangiz, bu terminlarni bilmasangiz, boshqa tildagi inson bilan gaplashganday bo'lasiz va uni tushunmaysiz. Bu maqolada shunday terminlardan biri – veb server haqida to'xtalib o'taman.

Biror bir internet saytga kirish uchun, brouzerga manzil yozsangiz, brouzer shu sayt joylashgan kompyuterga, saytdagi ma'lumotlarni ko'rsatish haqida so'rov jo'natadi, kompyuter oddiy temir bo'lgani uchun bu so'rovni tushunmaydi. Shuning uchun, ya'ni bu so'rovni tushunishi uchun, kompyuterga dastur o'rnatiladi. Mana shu dastur veb dastur deyiladi. Bu kompyuter esa, veb serverga aylanadi. Hozirda veb dastur deyilmasdan, umumiy holda veb server deyilmoqda.

Demak, veb server — foydalanuvchidan kelayotgan so'rovlarni qabul qilib, tegishli javobni jo'natadigan dasturdir. Foydalanuvchi sifatida veb brouzer(http, https protokoli orqali), mobil telefon(wap protokoli orqali), ba'zi dasturlar(antiviruslar) bo'lishi mumkin. Veb server orqali butun sayt boshqariladi, ya'ni sayt kataloglariga ruxsatlarni beradi, xavfsizlik jihatidan IP manzillarni blokka oladi, foydalanuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish va boshqa ko'plab ishlarni amalga oshiradi.

- 02 "ERP" UZUM "PIYOS"
- 04 Linux Mint distributivida E-imzo modulini o'rnatish
- 02 Androidda SMS yuborish
- 01 Java dasturlash tili bo'yicha onlayn darslar
- 03 Interface - PHPda interfeyslar bilan ishlash
- 01 C++ da grafika
- 03 Android ilovalar

O'zbek tilidagi muammolarni nafaqat onlayn tarjimalarda, balki oddiy Office dasturlarida ham kuzatish mumkin. Kirill va Lotin alfavitlarida matn terishda matnni tahrirlovchi funksiyalar ishlab chiqilmagan. Ms Word dasturi ingliz va rus tilidagi so'zlarning orfografik xatoliklarini aniqlashi ko'pchilikka ayon.

Yuqorida keltirib o'tilgan muammolardan shuni xulosa qilish mumkinki, o'zbek tilida sifatli web-kontentlar yaratish, xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rgatuvchi maxsus dasturiy ilovalarni ishlab chiqish dasturchilar, web-dasturchilar, kompyuter lingvistikasi mutaxassislari va tilshunoslar oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu masalalarni bosqichma-bosqich hal qilinishi aholi inofrmatsion ongining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Rahimov.A Kompyuter lingvistikasi. Toshkent, 2011.
- 2.Nilufar Abdurakhmonova. O'zbek tili lotin alifbosi uchun klaviatura yoki "unicode" masalasi/ Til va adabiyot ta'limi jurnali. №6. 2018.
- 3.https://uz.wikipedia.org/wiki/Google_Tarjimon
- 4.<https://translate.google.co.uz/>
5. <https://sysblok.ru/nlp/chto-ne-tak-s-mashinnym-perevodom/>